

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 6/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли

САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ
АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК8-17

Хайдаров Абдулходи Ахмадали ўғли

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА
ТОМОРҚАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР 18-22

Назаров Азизбек Ёқубжонович

ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК
ТАҲЛИЛИ 23-31

Abdulloyev Jamshed Izzatulloevich

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA
KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI 32-36

Пасилов Баҳодир Абдуллаевич

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ АЙРИМ
МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.) 37-41

Ismailov G'afurjon Xasanovich

TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI"
MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI 42-46

Raxmatulloev Murodjon Xikmatulloevich

BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA
OID ISLOHOTLAR 47-50

Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna

SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL 51-55

Нафиддинова Хосият Равшановна

БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР
МАЪЛУМОТЛАР 56-60

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Zhang Hongzhi, Wu Bo

RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR
SPREAD 61-66

Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna

MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 67-72

Nayimov Shoxruh

PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A
COMMERCIAL BANK 73-79

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich
ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE
DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 80-88

Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР
МАСАЛАЛАРИ 89-95

Abdullayeva Zamira Muxtarovna
МЕХНАТ ВОЗОРИ ТАЛАБЛАРИГА ОЛИЙ ТА’ЛИМ ХИЗМАТЛАРИ МОДЕЛЛАРИНИ
МОСЛАШТИРИШ 96-102

Имомов Холмурод Норқулович, Шарипов Тўлқин Саидахмедович
ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ
ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ 103-114

Эргашев Ахмаджон Махмуджон ўғли
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА
БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 115-122

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Imotova Nozimaxon Avazxonovna
JAMIYAT FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O’ZIGA XOS IJTIMOY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI 123-129

Qodirov Davronbek Hoshimovich
ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI 130-133

Jabborova Saodat Sattorovna
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA’NAVIY SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDA QO’SHGAN
HISSASI 134-142

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tuxtasinova Mahliyoхon Shavkatjon qizi
L.Z.BUDAGOV LUG’ATIDA ESKI O’ZBEKCHA SO’ZLARINING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA
IZOHLANISHI 143-149

Narmuratov Zayniddin Radjabovich
INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA TA’LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDA EKVIVALENTLIK
MASALASI 150-154

Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna
UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY
TA’MINOTI 155-160

Mirzayeva Yelena Sa’dullaevna
O’ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH 161-166

Alimjanova Shohsanam Azamat qizi
INGLIZ TILIDAGI KO’P MA’NOLI IBORALARNI O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI	167-171
<i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i> BADIIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalaming "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida)	172-176
<i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i> "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI	177-181

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Zulfikorov Sherzod Xurramovich</i> ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	182-191
<i>Tallibaev Umiddjon Sherгазиевич</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ.	192-199

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i> THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES	200-206
<i>Usmanaliev Khusniddin</i> INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESS OF A FOREIGN LANGUAGE	207-219
<i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i> ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	220-224
<i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i> TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI	225-229
<i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i> THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON- PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	230-236
<i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i> ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN	237-242
<i>Raxmatova Mexrinovna Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI	243-247
<i>Sheraliyev Odiljon</i> TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	248-254

09.00.00- Фалсафа фанлари

Jabborova Saodat Sattorovna
Turon Zarmed universiteti "Tarix" kafedrası o'qıtuvchısı
Email: sattorovna1975@gmail.com

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistondagi ma'naviy salohiyatning shakllanish jarayonining o'ziga xosligi, sharq mutafakkirlarining ushbu salohiyatni yuksaltirishdagi o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mizo Ulug'bek singari shaxslarning ushbu jarayonda tutgan o'rni va O'zbekiston ma'naviy salohiyatining muhim xususiyatlariga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy salohiyat, ma'naviy saviya, qadriyat, bilim, ma'naviy muhit, jamiyat

Jabborova Saodat Sattorovna
Teacher of the "History" department of Turon Zarmed University

CONTRIBUTION OF EASTERN THINKERS IN RAISING SPIRITUAL POWER

Abstract. The article talks about the uniqueness of the process of formation of spiritual potential in Uzbekistan, the role of eastern thinkers in raising this potential. Also, the role of such persons as Musa al-Khorazmi, Ahmad al-Farghani, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Mirza Ulugbek in this process and the important features of the spiritual potential of Uzbekistan were emphasized.

Key words: spiritual potential, spiritual level, value, knowledge, spiritual environment, society

Жабборова Саодат Сатторовна
Преподаватель кафедры "История" Университета Турон Зармед

ВКЛАД ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА

Аннотация. В статье говорится об уникальности процесса формирования духовного потенциала в Узбекистане, роли восточных мыслителей в повышении этого потенциала. Также подчёркивается роль таких учёных, как Муса аль-Хорезми, Ахмад аль-Фаргани, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Мирза Улугбек в этом процессе и важные особенности духовного потенциала Узбекистана.

Ключевые слова: духовный потенциал, духовный уровень, ценность, знания, духовная среда, общество.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N20>

Kirish. Zamonaviy jamiyatlarda ma'naviy salohiyat turli ichki va tashqi tendensiyalar, omillar ta'sirida shiddat bilan o'zgarib bormoqda. O'zbekistondagi ma'naviy salohiyat ham bundan mustasno emas. Turli ichki va tashqi omillar mamlakatning asrlar mobaynida qaror

topgan ma'naviy salohiyatiga o'zgacha mazmun, tus bag'ishlamoqda. Ayniqsa, bir tomondan, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylanishi, ikkinchi tomondan esa, jahonga xos bo'lgan tendensiyalar uning keng miqyosda takomil topishiga zamin yaratdi. Ayni damda bugungi kunda jamiyatning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xalal berayotgan, ayrim hollarda esa unga xavf tug'dirayotgan omillar ham yo'q emas. Mazkur pozitiv va negativ omillar, ularning ta'siri xarakteri xususida fikr yuritishdan avval O'zbekistondagi ma'naviy salohiyatning shakllanishi tarzini, uning bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistondagi *ma'naviy salohiyatning shakllanishi jarayoni o'ziga xos tarzda* sodir bo'ldi. Bu jarayonga eng avvalo mamlakatdagi tabiiy shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatdi. "Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiati, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqa sharoitining o'zi,- deb yozadi Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" nomli asarida,- ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini engil qilib yashashini taqozo etib keladi" [1]. Boshqacha aytganda, yurtdagi tabiiy shart-sharoitlar jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantiruvchi omil vazifasini o'tadi. Murakkab shart-sharoitlar kishilarni o'zaro hamjihatlikda umrguzaronlik qilishga, o'zaro yordam tamoyillariga amal qilishga undadi. Bu amaliyot nafaqat kishilarning turmush tarzini, balki ularning ma'naviy olamini ham belgilab berdi.

Murakkab tabiiy shart-sharoitlarning ma'naviy salohiyat shakllanishi jarayoniga ta'sirining yana bir jihati mavjud. Cho'l-biyobonlar, o'zgaruvchan iqlim sharoitlaridagi hayot tabiat qonunlari, unga moslashish, turmushni hamjihatlikda yengillashtirish bilan bog'liq bilimlarni puxta o'zlashtirishni taqozo qilardi. Shunday bilimlarni o'zlashtirgan kishilarni ulug'lash kayfiyati, farzandlarni ilm olishga chorlash amaliyotining vujudga kelishi sabablari ham shunga borib taqalsa kerak. Bunday amaliyot jamiyat a'zolarining madaniy saviyasiga – ularning bilimlari doirasi va mazmuniga, qadriyatlarini tizimiga, olam haqidagi tasavvurlariga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Ilmni, bilimni qadrlashga asoslangan ma'naviy-ruhiy muhit nafaqat jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi shakllanishiga, balki ko'plab ijodiy tafakkur sohiblarining ham voyaga yetishiga zamin yaratdi. Ularning ayrimlari, masalan, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek o'ta original tafakkuri bilan bugunga qadar jahon ahlini hayratga solib keladi. "Yurtimiz zaminida,-degan edi Prezident Sh.Mirziyoev – ... jahon ilm-fani va madaniyatiga unutilmas hissa qo'shgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi mutafakkirlar, muqaddas dinimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband singari buyuk allomalar, turkiy dunyoni qalam bilan birlashtirgan Alisher Navoiy singari ulug' shoirlar yashab o'tgan" [2].

Jamiyatda ijodiy tafakkur sohiblarining bisyorligi mamlakatda ko'plab ilmiy kashfiyotlarning qilinishiga poydevor bo'ldi. "Algebra fani va "Algoritm" tushunchasining asoschisi Al-Xorazmiy, yerning aylanasi uzunligi va radiusini ilk bor hisoblab chiqqan Al-Beruniy, tarixda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan, jahon tibbiyot fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ibn Sino, noyob rasadxona va 1018 ta yulduzning joylashuvi aniq aks ettirilgan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulug'bek kabi buyuk o'zbek olimlarining ilmiy merosi" [3] buning yorqin dalilidir. Ijodiy fikrlashga qodir bo'lgan Vatan farzandlari shaxsni ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlarining yaratilishiga ham sababchi bo'ldilar.

Ularning ayrimlari bugungi kunga kelib jahon adabiyoti va san'atining o'lmas durdonalariga aylangan. Masalan, "Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi"[4]. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnomasi" esa bugungi kunda "jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik" [5] sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Buyuk olim va shoirlar asarlarining aksariyat qismi avlodlarga qadar etib kelganidan ko'rinadiki, o'zbek xalqi o'z ma'naviy merosini nihoyatda e'zozlagan. Ularga oqilona munosabat ustuvor bo'lmaganida mazkur asarlarning mutlaq ko'pchiligi tarixning ziddiyatli davrlarida yo'q bo'lib ketgan, jamiyatning bugungi ma'naviy salohiyatini ta'minlovchi manbalarga aylanmagan bo'lardi.

Tahlil va natijalar. Ma'naviy merosga qadrli munosabat asrlar davomida millatning ma'naviy xavfsizligini saqlagan omil ham bo'lib kelgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek ijodi va asarlari jamiyat a'zolarining ilmga bo'lgan intilishlarini ruhlantirib turgan, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband merosi kishilarning xulq-atvorini ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirgan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Zavqiy, Furqat g'azallari va she'rlari odamlarni ezgulik va bunyodkorlikka undab kelgan.

O'zbekistonning *bugungi ma'naviy salohiyati qator xususiyatlari* bilan tavsiflanadi. Bu o'rinda avvalo *ma'naviy-ruhiy muhitning sog'lomligini* qayd qilmoq darkor. Jamiyatda kishilar o'zaro hamjihatlikda yashashga odatlanganlari, ularning bir-biriga bo'lgan ishonchining balandligi, ko'plab yumushlarning hamkorlikda ado etilishi, individual xulq-atvor modellarining ijtimoiy qoidalarga mutanosibli shundan dalolat beradi. O'zbek jamiyatida asrlar davomida hamjihatlikning o'ziga xos shakli qaror topgan: jamiyat a'zolarining hattoki shaxsiy muammolari ham qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar ishtirokida tahlil qilinadi hamda hamjihatlikda hal qilinadi. Masalan, yosh oilalarda, qarindoshlar yoki qo'shnilar o'rtasida vujudga kelgan kelishmovchiliklar aksariyat hollarda jamoatchilik ishtirokida bartaraf etiladi. Bunday yondashuv ko'p bora o'zini oqlagani bois odamlarning bir-birlariga mehr-oqibati, ishonchi mustahkamligicha qolmoqda. Jahon mamlakatlarida fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonch ahvolini maxsus o'rgangan xalqaro tashkilotlarning ko'pchiligi buni alohida ko'rsatib o'tadi. Jumladan, Londonda faoliyat olib boradigan Legatum tahliliy markazi tuzgan reytingda O'zbekiston ko'rsatkichi 27-o'rinda qayd qilinadi [6].

Mamlakatda odamlarning bir-biriga ishonchi yuqori bo'lgani tufayli ularni o'zaro hamkorlikka chorlash oson kechmoqda. Bu hol ayniqsa, umumijtimoiy tadbirlar o'tkazilayotganda, umumxalq hasharlari tashkil qilinayotganida, yordamga muhtoj aholi qatlamlariga ko'mak uyushtirilayotganida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Eng e'tiborlisi shundaki, O'zbekistonda o'zaro hamkorlik o'ziga xos ijtimoiy harakatga aylanib, unga moyil kishilar soni oshib bormoqda. Xuddi shuning uchun ham ushbu harakatning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2019 yilning 2 dekabrda "Volontyorlik faoliyati to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi [7].

O'zaro hamkorlik individual xulq-atvor modellarini ijtimoiy qoidalarga moslashtirib turgan omil vazifasini ham o'tamoqda. Darhaqiqat, turmush muammolarini hal qilishda jamoa a'zolaridan yordam olish, turli tadbirlarda ular bilan hamkor bo'lish uchun avvalo jamoa e'tirof etgan qoidalarga qat'iy amal qilish, o'z xatti-harakatlarini jamiyat normalariga moslashtirish zarur bo'ladi. Faqat shunday moslashuvigina shaxsni yaxlit ijtimoiy organizmning tarkibiy qismiga aylantiradi. Ana shu zaruriyat o'zbek kishilarini ijtimoiy normalarga qattiq amal qilishga undamoqda.

Jamiyat a'zolari madaniy saviyasining milliy va gumanistik xarakterga egaligi ham O'zbekiston ma'naviy salohiyatining muhim xususiyatlaridan biridir. "Mamlakatimizda,- deb yozadi tadqiqotchi L.Sohibova,- shaxsning madaniy saviyasi bilim olish ishtiyoqining balandligi, axloqiy asoslarining nihoyatda mustahkamligi, insonparvarlik g'oyalari ta'sirida shakllanganligi, milliy an'ana va marosimlardan xabardorlik va ularga amal qilish darajasining yuqoriligi, milliy badiiy adabiyot va san'atdan xabardorligi, madaniy merosga hurmat tuyg'usining salmoqliligi bilan xarakterlanadi" [8]. Masalan, 2023–2024 o'quv yili uchun davlat OTMlariga o'qishga hujjat topshirgan abituriyentlar soni 1 mln 18 ming nafarni tashkil etdi [9]. Bilimga intilish ishtiyoqini nafaqat yoshlarda, balki etuk yoshdagi kishilarda ham kuzatish mumkin. Shu boisdan mamlakatdagi elektron kutubxonalar xizmatidan foydalanuvchilar soni ham ko'paymoqda.

O'zbek kishisi madaniy saviyasining boshqa xususiyatlarini namoyon qiluvchi faktlarni ham keltirish mumkin. Lekin biz masalaning boshqa jihatiga e'tiborni qaratamiz. Masalaning mohiyati shundaki, o'zbek jamiyati a'zolarining madaniy saviyasi, birinchidan, o'zining milliy ruhga egaligi bilan ajralib turadi. Uning bilim olish ishtiyoqi baland – lekin bu ishtiyoqni asosan milliy manbalar yordamida qondirishga harakat qiladi. Uning axloq qoidalariga e'tibori katta – lekin bu qoidalar milliy axloq normalaridan tarkib topgan. Uning insonparvarlik g'oyalariidan voqifligi yuqori – lekin bu g'oyalarni milliy pozitsiyadan talqin qiladi. Uning milliy an'ana va marosimlardan, milliy adabiyot va san'atdan, milliy madaniy merosdan xabardorligi ham madaniy saviyasining milliy ruh bilan sug'orilganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan esa, o'zbek kishisining madaniy saviyasi insonparvarlik ruhiga egaligi bilan ajralib turadi. Odamgarchilik – o'zbek madaniy saviyasining asosiy belgisidir. "O'zbek tilining izohli lug'atida" "odamgarchilik" so'zi bir necha ma'noga egaligi qayd qilinadi. Xususan, u:

- a) "odamlarga muhabbat, mehribonlik; insonga yaxshi munosabatda bo'lish; insoniylik, insonparvarlikni";
- b) "insonparvarlik yuzasidan ish qilmoq, chin inson kabi munosabatda bo'lmoq; shafqat va mehribonchilik ko'rsatmoqni";
- v) iltifot qilmoq, lutfan qarshilamoqni";
- g) insoniy qiyofa, yurish-turishni" [10] anglatadi. O'zbek kishisining madaniy saviyasi mazkur belgilarning barchasini o'zida mujassam qilgani bilan ahamiyatlidir. U o'zlashtirayotgan bilim va g'oyalarni odamgarchilik mezonlari bilan o'lchashga odatlangan. U an'ana va marosimlarga amal qilishni odamgarchilik sifatida baholashga o'rgangan. U adabiyot va san'at asarlarining ham odamgarchilik tamoyillariga moslarni qadrlaydi.

Demak, milliylik va insonparvarlik ruhiyati o'zbek kishisi madaniy saviyasiga o'ziga xoslik baxsh qilib turibdi. Ana shu o'ziga xos madaniy saviya bugungi O'zbekiston ma'naviy salohiyatining ikkinchi xususiyatidir.

Bugungi O'zbekiston ma'naviy salohiyati *milliy g'oya va mafkuraning shakllanganligi* bilan tavsiflanadi. Mustaqillikning ilk yillari ijtimoiy taraqqiyotning yangi mo'ljallarini aniqlash va uni mafkuraviy asoslash yillari bo'ldi. Ziyolilarning ilg'or qatlami har qanday jamiyat o'z taraqqiyotining ijtimoiy mo'ljallariga ega bo'lishi kerakligini, bu mo'ljal milliy g'oya shaklida ifodalanishi zarurligini yaxshi anglardilar. Bu mulohazalar o'z vaqtida turli maqola va risolalarda atroflicha bayon etilgandi. Keyinchalik davlatning o'sha paytdagi rahbari intervyularida milliy g'oya va mafkuraning zaruriyati, o'ziga xos jihatlari mufassal ochib berildi [11].

Jumladan, milliy istiqloq g'oyasi targ'iboti bilan mashg'ul bo'ladigan institutsional tizim vujudga keldi, "Milliy istiqloq g'oyasi, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi, umumta'lim maktablari, kollej va litseylar, bakalavriat va magistratura bosqichlarida "Milliy istiqloq g'oyasi" fanidan saboq berish tajribasi joriy qilindi. Bularning barchasi mustaqillik arafasida va undan keyingi ilk yillarda bo'y ko'rsatgan mafkuraviy boshboshdoqlikka barham berdi, yoshlarni milliy istiqloq g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shdi" [12]. Bugun ham milliy g'oya va mafkurani shakllantirish masalalariga e'tibor susaygani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmoyishining qabul qilinishi shundan dalolat beradi. Shu tariqa mamlakatda milliy g'oya va mafkura yaxlit mazmun va tizim kasb qildi. Milliy g'oya va mafkura bugungi kunda nafaqat ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallarini o'zida mujassam qilmoqda, balki ijtimoiy ong shakllarining ijtimoiy manfaatlarga mos ravishda rivojlanishiga, jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan ma'naviy tajribalarning jamlanishiga, mafkuraviy xavfsizlikning ta'minlanishiga ham imkon yaratmoqda.

O'zbekiston ma'naviy salohiyatining yana bir jihati shundan iboratki, mamlakatda *ijodiy tafakkurga ega kishilar salmog'i* katta. Inson tafakkurining ijodiy xarakterga ega yoki ega emasligini aniqlash mushkul, albatta. Jahonning ko'plab mamlakatlarida turfa diqqatga sazovor ilmiy izlanishlar amalga oshirilganiga qaramasdan bu borada mutlaq samara beradigan uslub kashf qilingani yo'q. Biroq shaxsning muayyan masalaga bergan nostandart taklifi, e'tiborni tortgan ijodiy ishlanmasiga qarab undagi tafakkurning ijodiy xarakterga egaligini aniqlasa bo'ladi. Odatda bunday kishilar turli tanlovlarda, konkurslarda, olimpiadalarda, ko'riklarda yaqqol ko'zga tashlanadilar. Ana shu tadbirlarga doir ko'pgina ma'lumotlar mamlakatimizda ijodiy fikr yuritishga odatlangan, noyob iqtidorga ega bo'lgan kishilar salmog'i kattaligini, bu salmoq yil sayin oshib borayotganini ko'rsatib turibdi.

Masalan, 2022 yildan mamlakatda Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi tomonidan vazirliklar va hokimliklar bilan hamkorlikda "Mirzo Ulug'bek vorislari" ko'rik-tanlovi o'tkazila boshlandi. Mazkur tadbir yurtdagi iqtidorli yigit va qizlarni aniqlash va ularning faoliyatini rag'batlantirish maqsadida tashkil qilinmoqda. Shu yili "19-21 may kunlari Toshkentdagi INNO texnoparkda "Mirzo Ulug'bek vorislari" ko'rik-tanlovining final bosqichi bo'lib o'tdi. Avvaliga qariyb 24 ming o'g'il-qiz ro'yxatdan o'tgan musobaqaning dastlabki ikki bosqichida loyihalar saralanib, finalga 280 nafar ishtirokchi etib keldi" [13]. Shu ma'lumotning o'zi mamlakatda ijodiy fikrlashga qodir kishilarning katta guruhi mavjudligini ko'rsatib turibdi.

Boshqa ma'lumotga e'tibor qarataylik. Innovatsion rivojlanish vazirligi (hozirda – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) ma'lum qilishicha, "Yoshlar akademiyasi 2019 yilda tashkil etilgan bo'lib, shu davr ichida tashkilot tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash,

iqtidorli aniqlash va munosib taqdirlash, ularning takliflarini o'rganib, to'g'ri yo'naltirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda 3600 nafardan ortiq innovatsion loyihalar va g'oyalarga ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlarning ma'lumotlar bazasi shakllantirildi" [14]. Tabiiyki, bu yoshlar mazkur bazaga ijodiy tafakkurlari ortidan kirishga muvaffaq bo'lganlar, chunki shunday tafakkurgina innovatsion g'oyalarni yaratishga qodir.

O'zbekistonda *jahon darajasidagi ilmiy maktablarning mavjudligi* – uning ma'naviy salohiyatini tavsiflovchi xususiyatlardan biridir. "Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalarini, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda" [15]. Ushbu salmoqli ilmiy infrastruktura negizida dunyo tan olgan qator ilmiy maktablar yaratilgan, ularda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar umumjahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish bilan kuzatilmoqda.

Har yili ilmiy maktablarda e'tiborga loyiq ko'plab muvaffaqiyatlar qayd qilinmoqda. Prezident Sh.Mirziyoev bu holatni shunday e'tirof etgandi: "So'nggi yillarda olimlarimiz fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Tabiiy fanlarning asosiy sohalarini — astronomiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, farmatsevtika, geologiya, seysmologiya va boshqa jabhalarda jahon miqyosida qiziqish uyg'otayotgan natijalarga erishildi" [16].

Demak, qator ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari mamlakatda jahon darajasidagi ilmiy maktablar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu maktablar O'zbekiston ma'naviy salohiyatining beshinchi xususiyatidir.

O'zbekiston ma'naviy salohiyatining yana bir xususiyati *ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlari yaratishning davom etayotgani* bilan bog'liq. Istiqloq A.Oripov, E. Vohidov, R.Parfi, S. Sayid kabi shoirlarning, Sh.Xolmirzaev, T.Murod, E.A'zam kabi yozuvchilarning, R.Choriev, A. Ikromjonov kabi musavvirlarning ijodini yangi cho'qqiga olib chiqdi. Ularning ezgu g'oyalarni mujassam qilgan asarlari jamiyat a'zolarini mudom ma'naviy yuksalish sari chorlab kelmoqda, turli ijtimoiy illatlarni tanqid qiluvchi she'r va romanlari kishilarni ularga qarshi kurashishga chorlamoqda. Masalan, buyuk o'zbek shoiri A. Oripovning she'rlaridan birida shunday deyiladi:

"Eng avval tinch bo'lsin ko'ksingda vijdon,
Tinch bo'lsin el-u yurt, Vatan jonajon,
G'uborga chulg'anmay shu er-u osmon,
Tinch o'tgan har kuning albatta bayram" [17].

Ushbu satrlar Vatandagi tinchlik va xotirjamlikni eng oliy qadriyatlardan biri sifatida e'tirof etadi, odamlarni uni qadrlashga, uni ta'minlash uchun hissa qo'shishga chaqiradi.

Taniqli yozuvchi Tog'ay Murodning mustaqillik yillarida bitilgan "Otamdan qolgan dalalar" romani o'zbek ma'naviy hayotida muhim voqea bo'ldi. "Bu roman,- deb yozadi professor U. Normatov,- Alloh in'om etgan eng ulug' ne'mat — mustaqilligini, erkini boy bergan, bosqinchilar bo'yinturug'ini bo'yniga ilgan el-yurt boshiga tushgan balo-ofatlar, mislsiz xo'rliklar, istibdod iskanjasida qolgan xalq chekkan zahmatlar tufayli adib dilidagi oh-armon, nola-fig'on, salkam bir asr davom etgan imperiya zulmi, zug'umiga qarshi zo'r nafrat — isyon kabi yangraydi" [18]. Asar vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishi, fuqarolarni Vatan manfaatlari atrofida birlashtirishga xizmat qilishi bilan ham qadrlidir.

Mustaqillik yillarida yozuvchi Erkin A'zamning ham "Pakananing oshiq ko'ngli", "Kechikayotgan odam" kabi hikoya va qissalar to'plamlari nashr qilindi. "Erkin A'zam qissa va hikoyalarida oddiy va to'pori, boshqalarga o'xshamaydigan, dard-u tashvishlari, shaxsiy kechinmalari bilan yaqqol ajralib turadigan badiiy xarakterlarni yaratgan" [19]. Mazkur asarlar o'quvchini umr mazmuni va maqsadi haqida o'ylarga toldiradi, boshqa kishilarga hamdardlik qilishga o'rgatadi.

Milliy ma'naviy merosga hurmat ham O'zbekiston ma'naviy salohiyatining muhim xususiyatidir. O'zbek xalqi nihoyatda boy ma'naviy merosga ega xalqlardan biri sanaladi. O'tmish ajdodlardan minglab nodir qo'lyozmalar, an'ana va urf-odatlar, qadriyatlar meros bo'lib qoldi. Masalan, ajdodlar "qoldirgan ulkan ilmiy meros garchi turli bosqinlar davrida nobud qilingan, olib ketilgan bo'lsa-da, bizning davrimizgacha etib kelganlarining adadi, hisobga olinganlari ham kishini hayratga soladi" [20]. Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "26 ming jild qo'lyozma, 40 ming jildga yaqin toshbosma, 5 mingdan ziyod tarixiy hujjatlar saqlanadi". Ushbu nodir qo'lyozmalarda xalq tafakkurining oliy namunalari mujassam bo'lgan.

Shuningdek, milliy ma'naviy merosning tarkibiy qismi bo'lgan an'ana va urf-odatlarining mazmuni va turkumi ham diqqatga sazovor. "O'zbek xalqi,- deb yozadi Usmon Hosil,- qadimiy davrlardan shakllanib kelgan, asrlar osha ajdodlardan avlodlarga o'tib, sayqal topib, bebaho merosga aylangan odatlari ko'p va urflari boy bo'lgani uchun tarixda ulkan yutuqlarga erishgan. Bu odatlarning muayyan qismi tarixning davrlar silsilasi, bosqinchilar, hukmdorlar tazyiqi va turli tarixiy bo'hronlar natijasida yo'q bo'lib ketgan, qator odatlar turli qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlaridan ajralib bo'lsada, butunlay yo'qolib ketmagan, unsur sifatida saqlangan, yana boshqalari xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha etib kelgan" [21]. Ushbu an'ana va urf-odatlar millatning ahamiyatli ehtiyojlariga javoban vujudga kelgan, shakllangan va bugun ham shundayligicha qolmoqda.

"Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi,- deb yozgan edi I. Karimov,- ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi" [22]. Bizning zamonamizda esa ma'naviy merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish, zaruriy hollarda restavratsiya qilish va kelgusi avlodlarga etkazish choralarini ko'rish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shuni inobatga olgan holda mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoev, jumladan, shunday deb ta'kidlagan edi: "So'nggi yillarda biz O'zbekistonda milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning Vatan va xalq oldidagi xizmatlari, bebaho ilmiy va ijodiy merosi bilan nafaqat xalqimizni, ayni vaqtda dunyo jamoatchiligini ham keng tanishtirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz" [23].

Xullas, e'zoz va hurmat, oqilona yondashuv milliy ma'naviy merosning saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi uchun zamin yaratmoqda. Bu salmoqli ma'naviy meros O'zbekiston ma'naviy salohiyatining yettinchi xususiyatidir.

Nihoyat, O'zbekiston ma'naviy salohiyatining yana bir xususiyati jamiyatda *ma'naviy xavfsizlik darajasi yuqoriligi* bilan bog'liq. Mamlakatda destruktiv bilimlar, ijtimoiy illatlar, aksilqadriyatlar, g'ayriinsoniy xulq-atvor normalari, jamiyat manfaatlariga zid ideallarga murosasizlik muhiti shakllangan. Bu murosasizlik turli ijtimoiy munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekistondagi ma'naviy salohiyat asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllanib keldi. Murakkab tabiiy shart-sharoitlar mamlakatda xos ma'naviy-ruhiy muhitni, turmushni hamjihatlikda yengillashtirish bilan bog'liq bilimlarni puxta o'zlashtirgan kishilarni ulug'lash kayfiyatini, farzandlarni ilm olishga chorlash amaliyotini vujudga keltirdi. Bu amaliyot ijodiy tafakkur sohiblarining ko'payishiga, oqibat o'laroq milliy ma'naviy merosning yuksalishiga olib keldi. Bugungi kunda jamiyat ma'naviy salohiyati ma'naviy-ruhiy muhitning sog'lomligi, jamiyat a'zolari madaniy saviyasining milliy va gumanistik xarakterga egaligi, milliy g'oya va mafkuraning shakllanganligi, ijodiy tafakkurga ega kishilar salmog'ining kattaligi, jahon darajasidagi ilmiy maktablarning mavjudligi, ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlari yaratishning davom etayotgani, ma'naviy merosga hurmatning kattaligi, ma'naviy xavfsizlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Т.:Маънавият, 2008.- Б.9.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон – туркий тилли давлатлар Ҳамкорлик Кенгашининг тенг ҳуқуқли аъзоси.// Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Ж.4.- Т.:Ўзбекистон, 2020.- Б.259.
3. Мирзиёев Ш.М. Нагоя университети – синалган ва ишончли илмий ҳамкоримиз.// Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Ж.4.- Т.:Ўзбекистон, 2020.- Б.305.
4. Юсупова Д. Хамсанавислик анъанаси ва Алишер Навоий “Хамсаси”.// www.e-adabiyot.uz/maqola/1050.
5. Бобурнома.// uz.wikipedia.org.
6. The Legatum Prosperity Index-2021.// <https://www.Prosperty.com>.
7. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. “Волонтерлик фаолияти тўғрисида”.// lex.uz/docs/4623999.
8. Соҳибова Л. Ўзбекистондаги ижтимоий жараёнларнинг шахс маданий савиясига таъсири: Фалс.д. (PhD) дисс. автореф.- Бухоро: БухДУ, 2022.- Б.16.
9. 1 млн 18 минг: 2023 йилда шунча абитуриент ўқишга ҳужжат топширди.// www.gazeta.uz, 2023, 21 июль.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3.- Т.:Ўзб.миллий энцикл., 2007.- Б.84.
11. Каримов И.А. Жамиятимиз мафқураси халқни –халқ, миллатни миллат қилишга хизмат қилсин.// Биз ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.6.- Т.: Ўзбекистон, 1999; Каримов И.А. Миллий истиқ-лол мафқураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.// Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Том 8.- Т.:Ўзбекистон, 2000.
12. Ибрагимов Э. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири: Фалс.д. (PhD) дисс.- Самарқанд: СамДУ, 2019.- Б.106.
13. 100 нафар ёш олим “Мирзо Улуғбек ворислари” Республика танлови ғолибига айланди.// kun.uz, 2022, 22 май.
14. “Бўлажак олим” танлови ҳамда “Академик ҳаракатчанлик” дастури доирасида ғолиб бўлган ёшлар тақдирланди.// www.gov.uz, 2022, 8 июль.

15. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақига хизмат қилсин.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.- Т.:Ўзбекистон, 2017.- Б.168.
16. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақига хизмат қилсин.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.- Т.:Ўзбекистон, 2017.- Б.168-169.
17. Орипов А. Тинч ўтган ҳар кунинг, албатта, байрам.// Сайланма.- uzsmart.ru.
18. Норматов У. “Отамдан қолган далалар” ҳақида.// <http://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/maqolalar/1322-maqola.pdf>.
19. Эркин Аъзам.// qomus.info.
20. Қўлзма асарларнинг сақланиши, реставрацияси ва ўрганилиши қай аҳволда?// kun.uz, 2020, 8 январь.
21. Ҳосил У. Одатнома. Биринчи китоб.- Т.:Ўзбекистон, 2016.- Б.3-4.
22. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.// Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Том 6.- Т.:Ўзбекистон, 1998.- Б.125.
23. Мирзиёев Ш.М. Маданий ҳамкорликнинг ёрқин намунаси.// Миллий тикланишдан – миллий юксалиш са-ри. Ж.4.- Т.:Ўзбекистон, 2020.- Б.319.
24. Sobirovich T. B. The national and universal principles of democracy in the Central Asian context //International Journal of Advanced Research and Review. – 2021. – Т. 6. – №. 1. – С. 30-34.
25. Turdiyev B. S. Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 443-451.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).